XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2023 - yil 29 - dekabr VI-81-232-8-0-K/23 Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-886-sonli qonuni (keyingi o‘rinlarda - qonun) ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga muvofiq, Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari **3 104,5 mlrd. so‘m,** xarajatlari **4 937,3 mlrd. so‘m** prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **1 832,8 mlrd. so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Surxondaryo viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Surxondaryo viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga

oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun viloyat mahalliy budjetining viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari **22,0 mlrd. so‘m** miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida **1,0 foizi** miqdorida shakllantirilsin.

Surxondaryo viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2024-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Belgilab qo‘yilsinki, qonunga asosan 2024-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslardan olingadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

yig‘imlar (qonunchilikda respublika budjetiga yo‘naltirilishi belgilangan yig‘imlardan tashqari);

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950,3 450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar;

b) viloyatning viloyat budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respubilkasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat bojlari;

jarimalar (shu jamladan tuman (shahar) mahalliy budjetlariga yo‘naltirilishi belgilangan qismi ham);

davlat aktivlarini sotishdan olingan daromadlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar (a va b kichik bandlarda nazarda tutilgan tushumlardan tashqari barcha tushumlar).

d) quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari);

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari);

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkagol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq to‘liq hajmda taqsimlansin.

e) Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

11. Belgilansinki, qonunga asosan 2024-yildan boshlab quyidagilar viloyat budjetidan moliyalashtiriladi:

viloyat maktabgacha va maktab ta’limi tizimi tashkilotlari, sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash va jihozlashga, shuningdek sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash hamda ta’mirlash ishlariga doir xarajatlar;

kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

12. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Oripov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov), Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tumanlar va shaharlar hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tumanlar va shaharlar soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda belgilangan tartibda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (M.Abdiraxmanov) bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) viloyati Tog‘-kon geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i (J.Ro‘ziyev) hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (J.Jumaniyazov) viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Namozov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar

tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (F.Samatov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Viloyat “Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (B.Alimov) va viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (J.Jumaniyazov), viloyat Adliya boshqarmasi (S.Abdurasulov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21. Davlat moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi (B.Xusanov), viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (X.Mamadiyev) va Sog‘liqni saqlash

boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirishni;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisobotini **har chorakda** eshitib borishni ta’minlasin.

22. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

23. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklariga:

tumanlar va shaharlar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari viloyat, tumanlar va shaharlar Kengashlari, Yoshlar ishlari agentligi, tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etiladigan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib

borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni **har chorak yakunlariga** ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

24. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Oripov viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (S.Jumayev), tumanlar va shaharlar hokimliklari va tegishli boshqarmalar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar hamda ushbu qarorning ijrosi bo‘yicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga **chorakda kamida bir marotaba** hisobot kiritib borsin.

25. Mazkur qaror “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.R.Choriyev**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-232-8-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Surxondaryo viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli MO‘LJALLARI

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	2025-yil uchun mo‘ljal	2026-yil uchun mo‘ljal
1	Yalpi hududiy mahsulot, trln. so‘m	49,3	57,3	66,1
2	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	106,1	107,7	107,8
3	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	110,0	108,0	107,0
4	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	111,0	114,2	114,4
5	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104,8	105,0	105,2
6	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	106,0	108,0	110,0

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-232-8-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat budjeti daromadlarining asosiy prognozi KO‘RSATKICHLARI

(ming so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**1 681 957 650,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	110 792 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 045 138 750,0
3	Aksiz solig‘i jami	59 989 900,0
	shu jumladan:	
	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	59 989 900,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	37 102 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	116 903 500,0
6	Davlat bojlari	129 512 000,0
7	Jarimalar	78 457 000,0
8	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat budjetiga ajratmalar	1 482 000,0
9	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	24 572 000,0
10	Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar	13 500 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	29 110 500,0
12	Yig‘imlar	35 398 000,0
II.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**1 832 837 040,0**
Daromadlar hammasi		**3 514 794 690,0**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-232-8-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

Surxondaryo viloyati budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan 2024-yil uchun cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

	Xarajatlar miqdori, Jami	**3 514 794 690**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 663 003 250
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	*524 888 400*
	melioratsiya obyektlarini ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	*37 400 000*
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	*1 289 503 040*
	shundan	
	Maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlash xarajatlari	8 837 070
	Olis hududda ishlovchi budjet tashkiloti xodimlarining bir martalik moddiy yordam va oylik uy-joy ijara to‘lovlari uchun	*3 474 882*
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash uchun xarajatlar	42 748 998
1.	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**748 355 177**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	312 855 177
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	435 500 000
	shundan	
	xalq ta’limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlash xarajatlari	8 837 070
	Olis hududda ishlovchi budjet tashkiloti xodimlarining bir martalik moddiy yordam va oylik uy-joy ijara to‘lovlari uchun	3 474 882
2.	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**137 934 131**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	137 934 131
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
3.	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**776 920 838**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	710 475 738
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	66 445 100
	shundan	
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash uchun xarajatlar	42 748 998
4.	**Madaniyat boshqarmasi**	**49 836 200**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	49 836 200
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
5.	**Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi**	**62 291 813**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	62 291 813
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
6.	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**14 129 587**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 129 587
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
7.	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**69 098 199**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	69 098 199
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
8.	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**102 942 457**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	58 957 157
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	6 585 300
	melioratsiya obyektlarini ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	37 400 000
9.	**Transport boshqarmasi**	**1 572 476**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 572 476
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
10.	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**30 950 370**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 950 370
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
11.	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**1 343 873 100**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	54 370 060
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	*1 289 503 040*
12.	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 519 664**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 519 664
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0

13.	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 566 488**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 566 488
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
14.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**6 937 541**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 937 541
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
15.	**Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo boshqarmasi**	**10 527 259**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 527 259
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
16.	**Adliya boshqarmasi**	**14 896 886**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 896 886
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
17.	**Soliq boshqarmasi**	**23 257 526**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 257 526
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
18.	**Hokimiyat**	**79 550 649**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	63 192 649
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	16 358 000
19.	**Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**1 347 500**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 347 500
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
20.	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**18 937 632**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 937 632
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
21.	**Saylov komissiyalari**	**78 380**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	78 380
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
22.	**Boshqa xarajatlar**	**18 270 817**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	18 270 817
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-232-8-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

Foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yig‘imlar	Ijara to‘lovlari	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar
1	Termiz shahri	100	100	100	100	10	50	40	100	100	50		100	50	50
2	Oltinsoy tumani	100	100	100	100	80	50	100	100	100	50	100	100	50	50
3	Boysun tumani	100	100	100	100	50	50	100	100	100	50	100	100	50	50
4	Muzrabot tumani	100	100	100	100	65	50	100	100	100	50	100	100	50	50
5	Denov tumani	100	100	100	100	30	50	100	100	100	50		100	50	50
6	Jarqo‘rg‘on tumani	100	100	100	100	60	50	50	100	100	50	100	100	50	50
7	Qumqo‘rg‘on tumani	100	100	100	100	40	50	100	100	100	50	100	100	50	50
8	Qiziriq tumani	100	100	100	100	65	50	100	100	100	50	100	100	50	50
9	Sariosiyo tumani	100	100	100	100	50	50	100	100	100	50	100	100	50	50
10	Termiz tumani	100	100	100	100	40	50	100	100	100	50	100	100	50	50
11	Uzun tumani	100	100	100	100	75	50	100	100	100	50	100	100	50	50
12	Sho‘rchi tumani	100	100	100	100	45	50	100	100	100	50	100	100	50	50
13	Sherobod tumani	100	100	100	100	50	50	50	100	100	50	100	100	50	50
14	Angor tumani	100	100	100	100	50	50	100	100	100	50	100	100	50	50
15	Bandixon tumani	100	100	100	100	80	50	100	100	100	50	100	100	50	50

Izoh:* Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-232-8-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI		**1 422 494 350**	**2 711 997 390**
1	Termiz shahri	143 122 200,0	208 779 316,0
2	Oltinsoy tumani	89 165 100,0	183 389 871,0
3	Boysun tumani	68 747 000,0	148 436 147,0
4	Muzrabot tumani	79 394 100,0	160 453 405,0
5	Denov tumani	168 002 500,0	313 717 973,0
6	Jarqo‘rg‘on tumani	120 644 700,0	198 220 124,0
7	Qumqo‘rg‘on tumani	91 473 100,0	195 726 298,0
8	Qiziriq tumani	56 768 300,0	135 987 775,0
9	Sariosiyo tumani	96 817 000,0	224 761 889,0
10	Termiz tumani	70 181 300,0	131 110 742,0
11	Uzun tumani	94 360 000,0	179 254 700,0
12	Sho‘rchi tumani	107 452 750,0	190 677 381,0
13	Sherobod tumani	99 105 500,0	188 108 609,0
14	Angor tumani	80 999 000,0	150 237 873,0
15	Bandixon tumani	56 261 800,0	103 135 287,0

*tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-232-8-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024-yil uchun viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

(ming so‘mda)

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori jami	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**
JAMI		**1 289 503 040**	**485 917 179**
	shundan		
1	Termiz shahri	65657116	34046344
2	Oltinsoy tumani	94224771	32495793
3	Boysun tumani	79689147	21067694
4	Muzrabot tumani	81059305	25966210
5	Denov tumani	145715473	71002606
6	Jarqo‘rg‘on tumani	77575424	40235529
7	Qumqo‘rg‘on tumani	104253198	43096452
8	Qiziriq tumani	79219475	20993857
9	Sariosiyo tumani	127944889	38476662
10	Termiz tumani	60929442	14291762
11	Uzun tumani	84894700	31691309
12	Sho‘rchi tumani	83224631	38592469
13	Sherobod tumani	89003109	35649318
14	Angor tumani	69238873	24310300
15	Bandixon tumani	46873487	14000874

*tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-232-8-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

(ming so‘mda)

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**19 000 000**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	5 795 310
2	Termiz shahri	1 094 130
3	Oltinsoy tumani	818 240
4	Boysun tumani	768 840
5	Muzrabot tumani	767 800
6	Denov tumani	1 563 900
7	Jarqo‘rg‘on tumani	1 003 070
8	Qumqo‘rg‘on tumani	881 660
9	Qiziriq tumani	567 620
10	Sariosiyo tumani	1 102 660
11	Termiz tumani	767 980
12	Uzun tumani	892 590
13	Sho‘rchi tumani	870 120
14	Sherobod tumani	920 450
15	Angor tumani	793 880
16	Bandixon tumani	391 750